


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2020- yil yanvar-aprel)


2020- yil yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, respublikada tashqi savdo aylanmasi 166,7 mln. AQSh dollariga yetib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 70,0 % ni tashkil qildi. Shu jumladan, eksport hajmi 111,7 mln. AQSh dollarga va import hajmi 55,0 mln. AQSh dollariga yetdi. Tashqi savdo saldosi 56,7 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSh dollari)




2020- yilning yanvar-aprel oylarida, respublika tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 38,5 % ni tashkil etib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 70,1 % ni tashkil qilgan, boshqa davlatlarning ulushi esa 61,5 % bo'lib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 69,9 % ni tashkil qilgan. Shuningdek, eksport hajmida MDH davlatlari 40,0 % ni, boshqa davlatlar 60,0 % ni va import hajmida MDH davlatlari 35,4 % ni, boshqa davlatlar 64,6 % ni tashkil qildi.

**2020- yil yanvar-aprel oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida
MDH va boshqa davlatlarning ulushi**
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2020- yilning aprel oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, mart oyiga nisbatan 4,2 mln. AQSh dollarga kam eksport qilindi va 24,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Tovlar va xizmatlar importi hajmi esa 18,4 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lib, bu esa mart oyiga nisbatan 9,4 mln. AQSh dollariga ko'proqdir.

**2020-yil yanvar-aprelida tovar va xizmatlarning oylik
eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi**
(mln. AQSh dollari)



2020- yil yanvar-aprel oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi quyidagicha ko'rinish olgan:

**Respublika tashqi savdo aylanmasida
yuqori ulushga ega davlatlar**

(mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	TSA	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, % da	o'zgarish sur'ati, % da
Rossiya	42,2	30,5	11,7	25,3	67,4
Xitoy	41,4	31,2	10,2	24,8	68,7
Turkiya	21,0	20,3	0,7	12,6	71,3
Qozog'iston	18,1	12,0	6,1	10,9	75,1
Koreya Respublikasi	11,9	1,2	10,7	7,2	71,6
Latviya	10,3	8,4	1,9	6,2	112,8
Vyetnam	3,8	-	3,8	2,3	108,0
Bangladesh	2,2	2,2	-	1,3	-
Iroq	1,1	1,1	-	0,6	118,7
Eron	1,0	-	1,0	0,6	37,2
Qirg'iziston Respublikasi	1,0	0,6	0,4	0,6	77,3
Ruminiya	0,9	-	0,9	0,6	72,6
Qatar	0,9	-	0,9	0,5	2,2 b.

Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2020- yil yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 38,5 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati 2019- yilning shu davriga nisbatan 70,1 % ni tashkil etdi. Boshqa xorijiy davlatlarning respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2019- yilning yanvar-aprel oylarida 61,6 % ni tashkil qilgan bo'lsa, 2020- yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 61,5 % ni tashkil etdi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasining ayrim hamkor
davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi**

(mln. AQSh dollari)


Davlat nomi	2018- yil yanvar-aprel	2019- yil yanvar-aprel	2020- yil yanvar-aprel
Rossiya	70,1	62,7	42,2
eksport	51,0	51,3	30,5
Import	19,1	11,4	11,7
saldo	31,9	39,9	18,8
Xitoy	57,6	60,3	41,4
eksport	43,7	29,1	31,2
import	13,9	31,2	10,2
saldo	29,8	-2,1	21,0
Turkiya	40,2	29,5	21,0
eksport	37,8	18,5	20,3
import	2,4	11,0	0,7
saldo	35,4	7,5	19,6
Qozog'iston	26,7	24,1	18,1
eksport	21,5	18,6	12,0
import	5,2	5,5	6,1
saldo	16,3	13,1	5,9
Koreya Respublikasi	6,1	16,7	12,0
eksport	0,3	4,0	1,3
import	5,8	12,7	10,7
saldo	-5,5	-8,7	-9,4
Latviya	10,6	9,1	10,3
eksport	10,5	7,9	8,4
import	0,1	1,2	1,9
saldo	10,4	6,7	6,5
Vyetnam	1,9	3,5	3,8

Davlat nomi	2018- yil yanvar-aprel	2019- yil yanvar-aprel	2020- yil yanvar-aprel
eksport	0,8	-	-
import	1,1	3,5	3,8
saldo	-0,3	-3,5	-3,8
Bangladesh	0,5	-	2,2
eksport	0,5	-	2,2
import	-	-	-
saldo	0,5	-	2,2
Iroq	0,8	0,9	1,1
eksport	0,8	0,9	1,1
import	-	-	-
saldo	0,8	0,9	1,1
Eron	0,4	2,7	1,0
eksport	-	-	-
import	0,4	2,7	1,0
saldo	-0,4	-2,7	-1,0
Qirg'iziston Respublikasi	1,3	1,3	1,0
eksport	1,3	1,1	0,6
import	-	0,2	0,4
saldo	1,3	0,9	0,2
Ruminiya	0,8	1,3	0,9
eksport	-	-	-
import	0,8	1,3	0,9
saldo	-0,8	-1,3	-0,9
Qatar	-	0,4	0,9
eksport	-	-	-
import	-	0,4	0,9
saldo	-	-0,4	-0,9


EKSPORT

2020- yil yanvar-aprel oylarida eksport hajmi 111,7 mln. AQSh dollariga teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 99,3 % ulushga ega, bular asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (72,9 %) va oziq-ovqat mahsulotlari (9,6 %) guruhlariga hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (ming AQSh dollari)



Tovar va xizmatlar eksporti ulushi, (% da)




Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh doll.	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh doll.	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Eksport	111,7	82,3	100	44,7	61,4	100	67,0	106,4	100
Paxta-tolasi	4,8	-	4,3	-	-	-	4,8	-	7,2
Oziq-ovqat mahsulotlari	10,7	119,1	9,6	3,3	108,0	7,5	7,4	124,8	11,0
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	81,5	70,6	72,9	36,7	54,5	82,0	44,8	93,1	66,9
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,2	10,6	0,2	-	-	-	0,2	17,6	0,3
Mashina va asbob-uskunalar	0,1	2,5 b.	0,1	-	-	-	0,1	5,1 b.	0,1
Xizmatlar	0,8	120,3	0,7	0,5	101,9	1,2	0,3	191,4	0,4
Boshqalar	13,6	157,6	12,2	4,2	3,8 b.	9,3	9,4	125,0	14,1

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'zgarish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, 2020- yilning yanvar-aprel oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari mart oyida kuzatilgan.

Tovar va xizmatlar eksportining o'zgarish sur'atlari
(o'tgan oyga nisbatan, % da)




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'zgarish sur'atlarining tahliliga asosan, 2020- yilning aprel oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar mart oyiga nisbatan 18,5 % ga kamaygan.

Xizmatlar eksporti hajmi 0,8 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,7 % ini tashkil etib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 120,3 % ni tashkil etdi.


Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (58,8 %), moliyaviy xizmatlar (20,6 %) va safarlar (19,5 %) hissasiga to'g'ri keladi.

Xizmatlar eksporti tarkibi, (% da)




Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020- yilning aprel oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, mart oyiga nisbatan 4,2 mln. AQSh dollariga kam eksport qilindi va 24,3 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar eksporti esa 0,1 mln. AQSh dollarini tashkil etgan.

2020- yil yanvar-aprelida tovarlar va xizmatlar eksporti dinamikasi
(oylar kesimida, mln. AQSh dollari)



**Respublika eksportida asosiy
hamkor davlatlarning ulushi, (% da)**
(yanvar-aprel)



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Xitoy, Rossiya Federatsiyasi va Turkiya hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 73,4 % ini tashkil qiladi. Xitoy, Rossiya Federatsiyasi va Turkiyaga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlardan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

**Qoraqalpog'iston Respublikasining
asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi**

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, % da		O'ri	
	2019- yil yanvar- aprel	2020- yil yanvar- aprel	2019- yil yanvar- aprel	2020- yil yanvar- aprel	2019- yil yanvar- aprel	2020- yil yanvar- aprel
Xitoy	29,1	31,2	21,4	27,9	2	1
Rossiya	51,3	30,5	37,8	27,3	1	2
Turkiya	18,5	20,3	13,6	18,2	4	3
Qozog'iston	18,5	12,0	13,7	10,8	3	4
Latviya	7,9	8,4	5,8	7,5	5	5
Bangladesh	-	2,2	-	2,0	11	6
Koreya Respublikasi	4,0	1,2	3,0	1,1	6	7
Iroq	0,9	1,1	0,7	0,9	8	8
Afg'oniston	0,4	0,8	0,3	0,7	10	9
Tojikiston	0,9	0,7	0,7	0,6	7	10
Ukraina	0,7	0,6	0,5	0,6	9	11

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2020- yilning yanvar-aprel oylarida jami 18 095,1 tonna meva-sabzavot mahsulotlari 3 343,8 ming AQSh dollariga eksport qilindi (2019- yilning mos davriga nisbatan 1,4 % ga kamaygan). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2020- yilning yanvar-aprel oylarida 17 753,7 tonna sabzavotlar 3 060,1 ming AQSh dollariga eksport qilingan.

Shuningdek, 111,6 tonna meva va rezavorlar 103,5 ming AQSh dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan 395,7 tonnaga kamaygan.

Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi




Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2020- yilning yanvar-aprel oylarida sabzavotlar eksporti hajmi 3 060,1 ming AQSh dollariga yetdi (2019-yilning mos davriga nisbatan 17,4 % ga o'sgan).

**Respublikamizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining
asosiy bozorlari eksport geografiyasi**


Davlat nomi	2019- yil yanvar-aprel			2020- yil yanvar-aprel		
	tonna	ming AQSh doll.	ulushi, % da	tonna	ming AQSh doll.	ulushi, % da
Qozog'iston	5 633,4	2 392,1	70,5	17 487,6	3 095,9	92,6
Rossiya	1 988,5	453,6	13,4	476,1	126,8	3,8
Xitoy	-	-	-	51,0	53,0	1,6
Iroq	-	-	-	47,5	33,3	1,0
BAA	-	-	-	23,0	23,0	0,7
Turkiya	502,6	66,0	1,9	10,0	12,0	0,4

Meva va sabzavot mahsulotlarining tarkibi
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)

2019- yil yanvar-aprel



2020- yil yanvar-aprel




Sabzavotlar		Sabzavotlar
Meva va rezavorlar		Meva va rezavorlar
Uzum		Uzum
Qovun va tarvuz		Qovun va tarvuz
Yeryong'oq		Yeryong'oq


IMPORT

2020- yilning yanvar-aprel oylarida import hajmi 55,0 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 46,3 % ga kamaydi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (31,9 %), kimyo mahsulotlari va buyumlari (16,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari (15,1 %) va energiya manbalari va neft mahsulotlari (7,3 %) guruhlari hisobiga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar importi tarkibi (ming AQSh dollari)



Tovar va xizmatlar importi ulushi, (% da)




Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	Umumiy hajimga nisbatan, % da	mln. AQSh doll.	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	Umumiy hajimga nisbatan, % da	mln. AQSh doll.	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	Umumiy hajimga nisbatan, % da
Import	55,0	53,7	100	19,5	104,0	100	35,6	42,5	100
Oziq-ovqat mahsulotlari	8,3	127,9	15,1	7,9	125,5	40,5	0,4	192,0	1,2
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	9,2	87,6	16,7	0,2	19,3	1,1	9,0	96,1	25,3
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	4,0	159,8	7,3	1,7	5,8 b.	8,5	2,3	105,9	6,6
Qora va rangli metallar	0,6	46,2	1,1	-	12,3	0,2	0,6	54,4	1,6
Mashina va asbob-uskunalar	17,6	28,3	31,9	3,2	110,4	16,4	14,4	24,3	40,4
Xizmatlar	3,8	88,6	6,9	0,2	32,0	1,1	3,6	98,7	10,1
Boshqalar	11,6	75,0	21,0	6,3	87,1	32,2	5,3	64,4	14,8

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'zgarish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, 2020- yilning yanvar-aprel oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari aprel oyida kuzatilgan.

Tovarlar va xizmatlar importining o'zgarish sur'atlari dinamikasi
(o'tgan oyga nisbatan, % da)



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'zgarish sur'atlarining tahliliga asosan, 2020- yilning aprel oyida import qilingan tovar va xizmatlar mart oyiga nisbatan 143,0 % ga ko'paygan.


**Qoraqalpog'iston Respublikasiga
asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi**

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, % da		O'рни	
	2019- yil yanvar- aprel	2020- yil yanvar- aprel	2019- yil yanvar- aprel	2020- yil yanvar- aprel	2019- yil yanvar- aprel	2020- yil yanvar- aprel
Rossiya	11,4	11,7	11,2	21,3	3	1
Koreya Respublikasi	12,7	10,7	12,4	19,5	2	2
Xitoy	31,2	10,2	30,4	18,5	1	3
Qozog'iston	5,5	6,1	5,4	11,0	5	4


Vyetnam	3,5	3,8	3,4	6,8	6	5
Latviya	1,2	1,9	1,2	3,4	9	6
Eron	2,7	1,0	2,7	1,8	7	7
Ruminiya	1,3	0,9	1,2	1,7	8	8
Qatar	0,4	0,9	0,4	1,6	10	9
Shveytsariya	0,1	0,8	0,1	1,4	11	10
Italiya	-	0,7	-	1,3	12	11
Turkiya	11,0	0,7	10,8	1,3	4	12

Xizmatlar importi tarkibi, (% da)

2019- yil yanvar-aprel



2020- yil yanvar-aprel




Telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari
Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari

Moliyaviy xizmatlar
Transport xizmatlari
Boshqalar

Xizmatlar importi hajmi 3,8 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 6,9 % ini tashkil etdi va 2019- yilning shu davriga nisbatan 88,6 % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa ish yuzasidagi xizmatlar (88,2 %) hamda texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari (6,1 %) dan iborat bo'ldi.


2020- yil yanvar-aprelida tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi

(oylar kesimida, mln. AQSh dollari)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, respublikaga import qilinayotgan tovar va xizmatlar aprel oyida, mart oyiga nisbatan 9,4 mln. AQSh dollarga ko'p import qilingan bo'lib, shundan tovarlar 9,5 mln. AQSh dollarga ko'p import qilingan, xizmatlar esa 0,1 mln. AQSh dollarga kam import qilingan.

Respublika importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi, (% da) (yanvar-aprel)



2020- yilning yanvar-aprel oylarida respublikaga 40 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Vyetnam va Latviya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 44,4 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 80,5 % ini tashkil qiladi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashina va asbob-uskunalar, oziq-ovqat mahsulotlari hamda kimyo mahsulotlari va buyumlari asosan qaysi davlatlardan respublikamizga olib kirilayotganligini quyidagi sxemalardan ko'rish mumkin.

**Mashina va usbob-uskunalar import qilingan
asosiy hamkor davlatlar**

DAVLAT NOMI	XITOIY	VYETNAM	ROSSIYA	SHVEYTSARIYA	KOREYA RESPUBLIKASI
Ming AQSH doll.	6 329,9	3 668,2	2 880,2	769,7	670,3
2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	21,4	107,7	157,7	21,8 b.	19,9
Ulushi, % da	36,1	20,9	16,4	4,4	3,8

Oziq-ovqat mahsulotlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	QOZOG'ISTON	ROSSIYA	POLSHA	ERON
Ming AQSH doll.	5 761,8	2 105,3	337,0	51,9
2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	128,2	146,3	-	-
Ulushi, % da	69,2	25,3	4,0	0,6

Kimyo mahsulotlari va buyumlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	KOREYA RESPUBLIKASI	XITOIY	QATAR	BELGIYA	ERON
Ming AQSH doll.	4 237,5	1 901,1	899,6	540,3	408,6
2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	85,7	6,4 b.	2,2 b.	151,2	60,7
Ulushi, % da	46,0	20,6	9,8	5,9	4,4

Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: 71 230-82-06**